



GRIPP va O'RI BO'YICHA HAFTALIK MILLIY BYULLETEN

2024 yil 45 haftasi
(04.11.24 - 10.11.24)

Rezyume

Haftalik milliy byulletenda grippga o'xshash kasalliklar (GO'K), o'tkir respirator virusli infeksiyalar (O'RVl) va ularning og'ir shakllari (OO'RI) haqida ma'lumot beriladi.

Shuningdek, unda aholining turli yosh guruhlarida yuqoridagi infeksiyalar bilan kasallanish ko'rsatkichlari hamda gripp va o'tkir respirator patogenlar, shu jumladan COVID-19ga laboratoriya tekshiruvlari natijalari taqdim etilgan.

Ma'lumotlar 2024-yilning 45-haftasida butun respublika bo'yicha, jumladan Toshkent shahrining tayanch punktlari bo'yicha taqdim etilgan.

Kunlik nazorat

2024 yil 45 haftasida respublikada GO'K bo'yicha epidemiologik vaziyat 2023 yilning 45 haftasiga nisbatan kasallik ko'rsatkichlari 58,9%ga, O'RVl 16,2%ga, o'tkir zotiljam 12,8%ga pasayishi kuzatilgan.


GO'Kning eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri va Namangan viloyatida ro'yxatga olingan.

O'tkir zotiljam kasalligida eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri, Namangan, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan.

2024 yilning 45 haftasida O'RVlning eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri, Namangan va Toshkent viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan.

Mavsum boshidan GO'K bilan og'irgan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvda 5,9% gripp virusiga musbat natija aniqlangan.


1-rasm. 2024/25 va 2023/24 mavsumlardagi GO'K ko'rsatkichi 10 000 aholiga nisbatan.



Grippga o'xshash kasalliklar 2024 yilning 45 haftasida 2024 yilning 44 haftasiga nisbatan ma'muriy hududlarning viloyat markazlari, Nukus va Toshkent shaharlarida 2,2 marotabaga ko'paygan, 2023 yilning 45 haftasiga nisbatan kasallik ko'rsatkichi 7,7%ga kamayishi kuzatilgan.

Eng ko'p GO'K holatlari Toshkent va Namangan shaharlarida ro'yxatga olingan.

2-rasm. 2024/25 va 2023/24 mavsumlardagi O'RI ko'rsatkichi 10000 aholiga nisbatan.




2024 yilning 45 haftasida respublika aholisi o'rtasida O'RVİ bilan kasallanish ko'rsatkichi 2024 yilning 44 haftasiga nisbatan ma'muriy hududlarning viloyat markazlarida, Nukus va Toshkent shaharlarida 9,0%ga ko'paygan, 2023 yilning 45 haftasiga nisbatan kasallik ko'rsatkichi 2,0 marotabaga kamaygan.

Joriy haftada O'RVİ kasalligining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent, Namangan va Farg'ona shaharlarida ro'yxatga olingan.

Joriy yilning 45 haftasida O'RVİ kasalligi ko'rsatkichlari epidemik bo'sag'adan 35,8%ga past bo'lgan.

3-rasm. 2024/25 va 2023/24 mavsumlarda zotiljam ko'rsatkichi 10 000 aholiga nisbatan.



2024 yilning 45 haftasida o'tkir zotiljam kasalligi ko'rsatkichi 2024 yilning 44 haftasiga nisbatan 9,4%ga ko'paygan, 2023 yilning 45 haftasiga nisbatan kasallik ko'rsatkichi 42,9%ga kamayishi kuzatilgan.

Eng yuqori kasallik ko'rsatkichlari Toshkent, Namangan va Nukus shaharlarida ro'yxatga olingan.

GO'K bo'yicha nazorat


Grippga o'xshash kasalliklar holatini standart aniqlash (JSST-2014):

O'tkir respirator infeksiyalar quyidagi belgi bilan namoyon bo'lganda:

- ko'rik vaqtida yoki anamnezida tana haroratini 38C°dan yuqori bo'lishi;
- yo'tal;
- kasallik boshlangandan 10 kun davomida.

Joriy yilning 45 haftasida 5 -14 yosh guruhlarida kasallanish ko'rsatkichlarini kamayishi kuzatilgan. 0 - 4 yosh, 15 - 29 yosh hamda 30 - 64 yosh guruhlarida kasallik ko'rsatkichlari ko'payishi kuzatilgan. 65 yosh va undan katta yosh guruhlarida kasallik qayd etilmagan.

4-rasm. 2024/25 yillar mavsumidagi GO'K ko'rsatkichi 100 000 aholiga nisbatan.




O'tkir respirator infeksiyasi holatlarining standart aniqlanishi (O'RI, ECDC/JSST):


- o'tkir boshlanishi (oxirgi 10 kun) quyidagi respirator kasallik belgilarining bittasini ro'yxatga olinishi kuzatiladi:
- yo'tal;
- tomoqda og'riq;
- hansirash;
- tumov/rinit
- shuningdek, infeksiya sababli yuzaga kelganligi haqidagi klinik xulosa.

O'RVI bilan kasallanganlarni 0 - 4 yosh, 15 - 29 yosh hamda 30 - 64 yosh guruhlarida kasallik ko'rsatkichlari ko'payishi kuzatilgan, 5 -14 yosh guruhlarida kasallanish ko'rsatkichlarini kamayishi kuzatilgan. 65 yosh va undan katta yosh guruhlarda kasallik qayd etilmagan.

5-rasm. 2024/25 yillar mavsumidagi O'RI ko'rsatkichi 100 000 aholiga nisbatan.




6-rasm. GO'Kda gripp monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2024 yilning 45 haftasida GO'K bo'yicha dozorli nazorat doirasida grippga o'tkazilgan laborator tekshiruvlarning 27,0%da gripp A/H1N1 viruslari aniqlandi.

Mavsum boshidan GO'K holatlarining 11,6%da gripp viruslariga musbat natija aniqlandi. Jami grippga musbat natijalarining 100,0%da gripp A/H1N1 ga to'g'ri keldi.


7-rasm. GO'Kda O'RVl monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2024-yilning 45-haftasida GO'K bo'yicha dozorli nazorat doirasida O'RVlga laborator tekshiruvlarning 13,5%da musbat natijalar aniqlandi. Musbat natijalardan 60,0%da rinoviruslarga, 20,0%dan bokaviruslarga va respirator sinsitial viruslarga to'g'ri keldi.

Mavsum boshidan GO'K holatlarining 3,6%da O'RVlga musbat natija aniqlandi. Musbat natijalardan 60,0%da rinoviruslarga, 20,0%dan bokaviruslarga va respirator sinsitial viruslarga to'g'ri keldi.

8-rasm. GO'Kda SARS-CoV-2 monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2024 yilning 45 haftasida aniqlangan GO'K holatlaridan olingan klinik namunalarni SARS-CoV-2 yangi koronavirusiga laborator tekshiruvlarda musbat natijalar aniqlanmadi.

Mavsum boshidan GO'K bilan og'irgan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlarning 0,7%da SARS-CoV-2 virusiga musbat natija aniqlandi.


OO'RI bo'yicha nazorat

Og'ir o'tkir respirator infeksiya holatini standart tushunchasi (OO'RI, JSST-2014):


- oxirgi 10 kun davomida boshlangan o'tkir respirator kasallik va quyidagi belgilar kuzatiladi:
- anamnezda yoki ko'rik vaqtida tana haroratini 38C^odan yuqori bo'lishi;
- yo'tal;
- kasalxonaga yotqizilish zarurati.

OO'RI bo'yicha joriy yilning 45 haftasida barcha yosh guruhlari orasida kasallanish ko'rsatkichi kamaygan, 15 - 29 yosh guruhlari bundan mustasno bo'lib, bu guruhda kasallanish darajasining o'sishi qayd etilgan.

9-rasm. 2024/25 yillar mavsumidagi OO'RI ko'rsatkichi 100 000 aholiga nisbatan.




10-rasm. OO'RIda gripp monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2024 yilning 45 haftasida OO'RI bo'yicha dozorli nazorat doirasida grippga o'tkazilgan laborator tekshiruvlarning 28,8%da gripp A/H1N1 viruslari aniqlandi.

Mavsum boshidan OO'RI bilan og'rikan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlari 11,8%da gripp viruslariga musbat natija aniqlandi. Jami grippga musbat natijalarining 100,0%da gripp A/H1N1 ga to'g'ri keldi.


11-rasm. OO'RIda O'RVl monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2024-yilning 45-haftasida OO'RI bo'yicha dozorli nazorat doirasida O'RVlga laborator tekshiruvlarning 20,3%da musbat natijalar aniqlandi. Musbat natijalardan 50,0%da respirator sinsitial viruslarga, 33,3%da rinoviruslarga, 8,3%dan bokaviruslarga va paragripp viruslariga to'g'ri keldi.

Mavsum boshidan OO'RI holatlarining 4,7%da O'RVlga musbat natija aniqlandi. Musbat natijalardan 50,0%da respirator sinsitial viruslarga, 33,3%da rinoviruslarga, 8,3%dan bokaviruslarga va paragripp viruslariga to'g'ri keldi.

12-rasm. OO'RIda SARS-CoV-2 monitoring natijalari mavsum 2024/25 yillar.



2024 yilning 45 haftasida aniqlangan OO'RI holatlaridan olingan klinik namunalarni SARS-CoV-2 yangi koronavirusiga laborator tekshiruvlarda musbat natijalar aniqlanmadi.

Mavsum boshidan OO'RI bilan og'rigan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlarining 2,0%da SARS-CoV-2 virusiga musbat natija aniqlandi.